



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 9-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

TA'LIM-TARBIYA SOHASINING BARCHA JONKUYAR XODIMLARI
VA FAXRIYLARINI UMUMXALQ BAYRAMI – O'QITUVCHI VA
MURABBIYLAR KUNI BILAN MUBORAKBOD ETAMIZ!



Ushbu sonda



ILG'OR PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR

Yordamchi so'zlarni
o'qitishda kognitiv-
pragmatik yondashuvli
topshiriqlar

6
bet



TAHLIL

Po'lat Mo'min ijodida
odob-axloq motivlari

14
bet



TADQIQOT

Italyan va rus
famiyalarini tipologiyasi

34
bet



СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

«Острый и
оригинальный
писатель»

78
bet

lik bilan bo'lsa-da, grammatik qoidalarsiz ta'lim berish tizimiga o'tilmoqda. To'g'ri, bu tizim yangi, shu sababli o'rgatuvchida yangicha fikrlash, yangicha yondashishni talab qilmoqda. Eskicha "ta'lim qolip"larini parchalash ancha qiyin kechmoqda. Yanada soddaroq tushuntiradigan bo'lsak, yangicha ishlash tizimi o'rgatuvchining o'z ustida ko'proq ishlashini, izlanuvchanligini taqozo etmoqda. Nachora, zamon talabi shu. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Maktabda metodika o'zgaras ekan, ta'limda o'zgarish bo'lmaydi" [1] deganda ta'lim tizimida yangilanish zaruriyligini nazarda tutgani shubhasiz. Biz an'anaviy ta'lim tizimidagi samarasi yuqori bo'lgan usul va vositalarni saqlab qolish tarafdorimiz. Ayni damda yangicha o'qitish jarayoniga har bir o'rgatuvchining hissa qo'shishiga xayrixohmiz.

Yana bir mulohaza. Ko'pchilik hollarda o'rganuvchilar ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasini qo'shma fe'llardan farqlashda qiyinchilikka duch keladi. Gap shundaki, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida ham, qo'shma fe'lda ham "fe' + fe'l" qolipi mavjud. Qoliplarning bir xilligi, bog'lovchi vosita sifatida –b(-ib) ravishdoshining qo'llanishi o'rganuvchini ikkilantiradi. Misollarni solishtiraylik: *aytib tashladi* – ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, *olib keldi* – qo'shma fe'l. Ikkala misolda ham ravishdosh qo'shimchasi ikki fe'lni o'zaro bog'lashga xizmat qilgan. Nazarimizda, bunday misollar tahlilida shakliy jihat emas, mazmuniy jihat e'tiborda bo'lishi kerak. Bu kabi misollarning mazmun-mohiyati o'rganuvchilar xotirasida uzoq saqlanishi uchun quyidagi sahnaviy lavhani o'quvchilarning ko'z o'ngida, ularning ishtirokida tashkil qilish mumkin. *Olib keldi* fe'lining qo'shma fe'l ekanligi unda ikki harakatning bajarilishidir. Ana shu bajariladi-

gan harakat o'quvchilar ko'z o'ngida o'qituvchining o'zi tomonidan bajarilishi yoki biror o'quvchiga bajartirilishi mumkin. Ya'ni biror narsa olingani ham, kelingani ham o'quvchilar ko'z o'ngida ro'y beryapti. Tushunchani mustahkamlash uchun o'rganuvchilarning o'zlariga ham shunday misollar topish vazifasi beriladi. O'ylab, qiyinchilik bilan topilgan misollar va ularning yuqoridagi kabi mushohada va tahlil qilinishi qo'shma fe'l haqidagi bilimning uzoq vaqt saqlanishini ta'minlashi shubhasiz. Ana shunday hosil qilingan bilimga tayangan o'rganuvchining ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni yengillashadi. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida faqat yetakchi fe'l ifodalagan harakatning bajarilishi, ko'makchi fe'l unga qo'shimcha ma'no yuklayotganligi haqidagi bilimni o'zlashtirish jarayoni osonlashadi. To'g'ri, ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bilan qo'shma fe'llar shaklan bir xil ko'rinishda bo'lishi kuzatiladi. Masalan, *chiqarib qo'ydi* (biror narsani) – qo'shma fe'l, *chiqarib qo'ydi* (kimnidir vokzalga) – ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi. Bunday hollarda shakliy o'xshashlikka tayanib, xulosa chiqarishga shoshmaslik kerak. Matndagi jumla mazmuniga qarab fikr yuritish eng ma'qul yo'ldir.

Ilmiy manbalarda "fe'l+fe'l" qolipidagi qo'shma fe'llar miqdori kamligi, shu qolipdagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining ko'pligi ta'kidlangan [2: 371–372]. Aslida gap ularning ko'p yoki ozligida emas. Muhimi, masalaning mohiyatini to'g'ri tushunish, o'rganuvchilarga to'g'ri tushuntirishda. Ana shu jarayonni qaysi shakl va usullarda tashkil etishda. Shu paytgacha amalda qo'llanib kelinayotgan usul va shakllarga tanqidiy va tahliliy yondashishda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir // Boshlang'ich ta'lim, 2020-yil, 1-son.
2. O'zbek tili grammatikasi. 1-jild, – Toshkent: Fan, 1975.

Umida SHERMATOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
PhD, dotsent.

MUSTAQIL MUTOLAAGA O'RGATISH USULLARI

Adabiy davralarda, inson ma'naviyati bilan bog'liq bahs-munozaralarda, asosan, o'rta va yuqori sinflardagi ta'lim-tarbiya yuzasidan qizg'in fikr-mulohazalar bildiriladi-yu, boshlang'ich sinflar chetlab o'tiladi. Holbuki, ta'lim-tarbiya jabhasidagi yutuq-kamchiliklar zaminini boshlang'ich sinflardan izlash kerak. Chunki bolalarning nafaqat ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, balki ta'lim olishga doir ko'nikma va malakalari ham ilk maktab yoshidan shakllanadi. Bu borada, ayniqsa, o'qish va ona tili ta'limi zimmasiga alohida mas'uliyat tushishi psixologlar tomonidan allaqachon isbotlangan.

Shu o'rinda boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv fanining ona tili ta'limi doirasiga kiritilishi, oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarida shu tarzda o'rganilishi munozarali ekanini ta'kidlash joiz. Bolalar adabiyotini hozirgi holatida boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot namunasi sifatida o'rgatishga qaraganda, bog'lanishli nutqni o'stirish vositasi sifatida o'rganishga ko'proq e'tibor berilgan. Unda badiiy asardagi nafosatni idrok qilishga yo'llash orqali ezgulikka muhabbat uyg'otish o'rniga, asarlarga ko'proq mavzusiga ko'ra yondashish ustuvorlik qiladi. Boshqacha aytgan-

da, boshlang'ich sinflarning o'quv fani dasturi va darsliklarida adabiyotshunoslik nuqtayi nazari til ilmiga nisbatan ancha zaif. Mazkur sinflar o'quv dasturida ona tili va o'qish ta'limi o'quvchilarda bog'lanishli nutq turlarini o'stirish bilan birga ularning ma'naviy-axloqiy takomiliga oid quyidagi masalalarni hal etishi qat'iy belgilab berilgan:

- bolalarda g'oyaviy, axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- bolalarning atrof-muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarini boyitish;
- o'quvchilarda nafasat hissini tarbiyalash;
- bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish darslarida vaqtdan unumli foydalana olish ko'nikmasini, mustaqil ish usullarini egallash;
- o'quv mashg'ulotlariga, bilim manbayi bo'lgan kitobga qiziqishni o'stirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan sinfdan va maktabdan tashqari o'qishni to'g'ri uyushtirishga ham bog'liq. Shu boisdan sinfdan tashqari o'qishga boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi o'quvchilarni bilimlarni va milliy-madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni tarbiyalash va rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyotining xilma-xil namunalari misolida so'z san'atining chinakam boyliklari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish; o'quvchilarda bilim manbayi va estetik zavq-shavq vositasi bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish, mustaqil o'qishga ijodiy munosabat shakllantirishdir.

Psixologiya va didaktika bilan shug'ullanuvchi olimlar hamda taniqli metodistlarning asarlarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati bilan badiiy-estetik tafakkuri o'rtasida yaqinlikning mavjudligi to'g'risida e'tiborli kuzatishlar bayon qilingan. Darhaqiqat, san'at asarini tanqidiy baholay oladigan, shaxsiy nuqtayi nazarini yozma va og'zaki tarzda ifodalay biladigan o'quvchilargina ma'naviy-axloqiy kamolot sari dadil intiladilar. Bunday ko'nikma va malakalarni shakllantirishda mustaqil mutolaa ayricha ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni mustaqil mutolaa o'rgatishning asosiy omili bo'lgan sinfdan tashqari o'qish mustaqil ishlarning o'ziga xos turi sanaladi. U o'qituvchi tomonidan dastur talablari bo'yicha uyushtiriladi va nazorat qilinadi. Boshlang'ich sinflarda tayanch maktabi va yuqori sinflardan farqli o'laroq, sinfdan tashqari o'qish uchun asarlar ro'yxati berilmaydi. Bu ish o'qituvchining zimmasiga yuklatiladi. Sinfdan tashqari o'qish shaklan ham, mazmunan ham mustaqil ishlarning o'ziga xos turi ekan, uni odatdagi dars mashg'ulotlariga aylantirib yuborish o'quvchining erkiga rahna solgani kabi, ma'lum reja bo'yicha qat'iy tizim asosida izchil o'tkazmaslik ham kutilgan samarani bermaydi.

Milliy ma'rifiy ta'lim tarixidan ma'lumki, har qanday o'quv jarayoni quyidagi muayyan tizimga amal qiladi: 1) o'quv topshirig'i; 2) o'quv-izlanuv faoliyati; 3) nazorat bosiqichi; 4) baholash.

Ta'lim jarayonida ulardan birortasiga yetarli e'tibor berilmasa yoki amal qilinmasa, o'rgatilayotgan

bilimlarning o'zlashtirilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bu holat to'laolagicha sinfdan tashqari o'qishga ham taalluqlidir.

Asarlarni sinfdan o'qib-o'rganish jarayonida o'quvchilarning badiiy matn mazmun-mohiyatini tushunish, his etish, idrok qilish va anglashga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish orqali ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash ko'zda tutiladi. Adabiy ta'limning o'ziga xos shakli bo'lgan sinfdan tashqari o'qish ham shubhasiz shu vazifaga bo'ysunadi. Tafovut shundaki, u ko'proq o'quvchining mustaqilligiga, shaxsiy qiziqishiga suyanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar darsdan tashqari mustaqil kitob mutolaa orqali o'qish texnikasini o'zlashtiradilar, ayni chog'da ularning nutq boyligi ham o'sadi. Balki har xil janrdagi bolalar kitoblari bilan izchil tanishtira borish vositasida o'zlari o'qishi lozim bo'lgan asarlarni mustaqil tanlash malakasini shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Chunki har qanday kitob o'z qiziqishi, bilimi va tushunchalariga mos asar tanlay bilgan o'quvchigagina bag'rini ochadi. Zero, adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan vazifa ham o'quvchilarni faol kitobxonlikka o'rgatish orqali ma'naviy-axloqiy barkamol kishilar qilib tarbiyalashdir.

Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish usullari haqida ijtmoy-ma'naviy tarbiyaning ilk bosqichi – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limi tizimidan boshlab ko'p gapiriladi, ammo amal qilinmaydi. Kitobxonlik madaniyati tarbiyasi umumpedagogik tarbiyaning asosiy bo'g'ini ekani yetarli darajada inobatga olinmaydi. Barcha o'quvchilarni bir xil kitob o'qishga majburlash va mazmunini gapirib berishni talab qilish bilan kitobxonlik madaniyatini shakllantirib bo'lmaydi. Kitob o'qishga nisbatan bunday yondashish o'quvchilarni badiiy adabiyotdan faqat bezdirishi mumkin.

O'quvchilarga adabiy ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab, aql chirog'i va bilim manbayi bo'lgan kitobga muhabbat uyg'otish, unga gigiyenik jihatdan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, kitob tanlash malakasini shakllantirish adabiy ta'lim oldiga quyidagi ishlarni hal qilish vazifasini qo'yadi:

1. Har bir sinfdan o'quvchilar jamoasining doirasini aniqlash. O'quvchilarga kitob tavsiya qilishda ularning istak-xohishlarini, albatta, inobatga olmoq lozim.

2. O'quvchilarning kitobxonlik faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan qoida va usullar majmuyini ishlab chiqish. Bunday qoida va usullar (masalan, kitobni qay tartibda o'qish, o'qiganda nimalarga e'tibor berish va h.k.) o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, mustaqil mutolaa faoliyatini tartibga solishga yordam beradi.

3. Kutubxona jamoalari bilan hamkorlik qilish, kutubxona xodimlarining kitobxonlar bilan ishlashga doir rejalarini hisobga olish. Juda bo'lmagan mahalliy shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil qilish. Imkon bo'lmagan hollarda o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan taniqli ijodkorlarga maktablarni uyushtirish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kitobxonlik madaniyatiga erishish yuzasidan oddiy tushunchalar

beriladi. Jumladan, 1–2-sinflarda o'qituvchi rahbarligida sinfdan tashqari o'qilgan kitoblarning nomi, muallifi va mavzu doirasini bilish talab etiladi. Bu yoshdagi o'quvchilar kitobning bitta yoki bir nechta asardan tashkil topishi, badiiy asarlarning mavzu va janr xususiyatlari, yozuvchilarning tasvir uslubiga ko'ra tur va xillarga bo'linishi, o'xshash mavzudagi, shuningdek, bir yozuvchi qalamiga mansub asarlarning o'zaro bir-biridan farqlanishi kabi umumnazariy masalalar to'g'risida tasavvurga ega bo'ladilar. 3–4-sinflarda o'quvchilarning kitob – muallif, kitob – mavzu, kitob – janr haqidagi tushunchalari, to'plamlarning bir muallif qalamiga mansubligi yoki turli mualliflarning bir mavzudagi asarlaridan tarkib topishi yuzasidan olgan bilimlarini Anvar Obidjonning "Uyquda nimalar bo'lmaydi" turkum hikoyalari, Tursunboy Adashboyev tomonidan to'plab nashrga tayyorlangan "Sichqonning orzusi", Qambar O'tayevning "Toshpolvon va ishpolvon haqida ertak", "Tomda uxlagan bola" kabi talay kitoblar misolida chuqurlashtirish ko'zda tutiladi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarning tayyorlov bosqichida (1–2-sinflar) kitob bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyati bo'yicha ilk tushunchalar berilib, asosiy bosqichda (3-sinf) o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, ammo uning yordamisiz, o'z tajribalari asosida zarur kitoblarni mustaqil tanlashga o'rgatilsa, yakuniy bosqichda (4-sinf) kitobxonlikka doir mustaqil faoliyat malakalari shakllantirila boriladi. Shunga erishish kerakki, boshlang'ich sinflarni tugatgan o'quvchi kamida 10–15 yozuvchining nomini

bilsin, ularning asarlaridan namunalari o'qishga ulgur-sin, eng muhimi, kitobning nomi, muallifi, titul varag'i, annotatsiyasiga qarab mavzusi va janrini chamalay olsin.

Malakali kitobxon xoh o'z xohishi, xoh o'qituvchi topshirig'i bo'yicha bo'lsin, o'ziga zarur mavzu va janrdagi asarlarni boshqa mavzu va janrdagi asarlardan farqlashda ko'p qiynalmaydi. Ko'p hollarda nafaqat boshlang'ich yoki quyi sinf, balki yuqori sinf o'quvchilari ham "qaysi yozuvchilarning asarlarini sevib o'qiysiz", degan savolga javob berishda qiynaladilar. Ba'zi o'quvchilar, nari borsa, ijodi dastur asosida o'rganilgan yoki el aro mashhur Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlarning nomlarini tilga olish bilan cheklanadilar. Kuzatishlardan shu narsa ma'lumki, ayrim o'quvchilar duch kelgan kitobni o'qishsa, ba'zilar ijodi darsda o'rganilgan yozuvchilarninggina kitoblarini "tan" olar ekan. Buning sababi kitobxonlik madaniyatining shakllantirilmaganligi, birinchi navbatda, sinfdan tashqari o'qishning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir.

O'qituvchi yoki a'lochi o'quvchilar tomonidan namoyish qilinib, mazmuni gapirib berilgan qiziqarli kitobni har bir o'quvchining o'zi ham o'qigisi kelishi tabiiy. Natija esa ayon, ular shu xildagi kitob burchagi bo'lmagan sinf o'quvchilaridan kitob tanlash malakalari bilan-gina emas, mustaqil fikrlash ko'nikmalari, bog'lanishli nutqlarining to'g'ri va ravonligi bilan ham ajralib turadilar.

Xolida G'ULOMOVA,

*Chirchiq davlat pedagogika
universiteti katta o'qituvchisi*

YORDAMCHI SO'ZLARNI O'QITISH METODIKASI

Umumiy o'rta ta'limda yordamchi so'zlarni o'rgatishda o'quvchilarning mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning nutq jarayonidagi o'rni va vazifasini bilishlari, yordamchi so'zlarning grammatik va uslubiy ma'nolarini farqlashlari, nutq jarayonida ulardan maqsadga muvofiq foydalana olishlari hamda yozilishini o'zlashtirishlariga erishish talab etiladi. Bunda mustaqil ish metodi asosida quyidagi topshiriq va o'quv materiallaridan foydalanish samarali ish turlaridan hisoblanadi:

Topshiriq. Gaplarni o'qing. Mustaqil so'zlarni aniqlang. Matnda qo'llangan qolgan so'zlarni tushirib o'qing. Bu so'zlar matnda qanday o'rin tutganini izohlang.

Og'zaki nutqqagina ega bo'lib, hozirda butunlay yo'qolib ketgan tillarning son-sanog'i yo'q. Ham yozma, ham og'zaki nutq shakliga ega, biroq hozir amalda mavjud bo'lmagan qadimiy tillar ham talaygina. Tilshunoslik fanida bu kabi tillar "o'lik tillar" deb ataladi. Xitoy Xalq Respublikasidek davlatda 1 yarim milliard-

dan ortiq odam xitoy tilida gaplashgani bilan u butun jahon bo'ylab keng yoyilmagan.

Topshiriqni bajarish davomida o'quvchilarning yordamchi so'z turkumlarini nima maqsadda o'rganish zarurligi haqidagi fikrlari quyidagicha test asosida aniqlanadi: 1. Mustaqil so'zlar bilan yordamchi so'zlarning nutq jarayonidagi o'rnini bilishlari uchun. 2. Yordamchi so'zlarning grammatik va uslubiy ma'nolarini farqlashlari uchun. 3. Yordamchi so'zlardan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olish uchun. 4. Yordamchi so'zlarning yozilishini o'zlashtirishlari uchun.

Yordamchi so'zlarning muhim qismini ko'makchilar tashkil etadi [1: 223]. Tilimizda *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar, tomon, sababli, orqali, tufayli, qarab, ko'ra, chog'li, uzra* kabi juda ko'plab so'zlar borki, nutqiy faoliyatda ularning ahamiyati benihoya katta. Ko'makchilarni o'rgatishda esa muammoli izlanish, qayta xotirlash metodi va taqqoslash usulidan foydalanish muhim o'rin tutadi.



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.

9-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.28.09. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garnituras. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Suhbat

Bahodir Jovliyev. Ona tili va adabiyot tarbiyada yengilmas qurol 3

Adabiy taqvim

Gulandom Quramboyeva. Hayot falsafasin kuylagan adib 5

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Umid Hamroyev. Yordamchi so'zlarni o'qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvli topshiriqlar 7

Abdimurat Namazov. Amaliy yondashuv – nazariy bilimlarni mustahkamlash vositasi 10

Umida Shermatova. Mustaqil mutolaaga o'rgatish usullari 11

Xolida G'ulomova. Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi 13

Tahlil

Safo Matchonov. Po'lat Mo'min ijodida odob-axloq motivlari 15

Yana Arustamyan. The issues of teaching terminology in the sphere of cinematography 17

Feruza Sharopova. O'qib tushunishni rivojlantiruvchi ko'nikma va strategiyalar 21

Shakhnoza Akhmedova. Concepts of myth, mythology and mythopoetics in modern English literature 23

Xolida Bazarova. She'riyatda payg'ambarlar obrazi 24

Tadqiqot

Abduraxim Nasirov. Proverbial frazeologizmlarning xususiyatlari va belgilari 26

Fazliddin Sharipov. Milliy korpus masalasi – bugungi kun muammosi 30

Azamat Uralov. Morfologik shakllarda dualizm, konversiya va transpozitsiya jarayonlari bilan bog'liq nomutanosibliklar 32

Iqbol Koziyeva. Italyan va rus familiyalari tipologiyasi 35

Nasiba Shodiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili 36

Rimma Biksalieva. The problem of definition and classification of neologisms in the russian language 39

Metodik tavsiya

Mahbuba Tojiboyeva, Alisher G'oziev. Arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvini o'rganishda o'zlashgan so'zlarni aniqlash 40

Gulchehra Saydaliyeva. Translation of names in "lison ut-tayr" (Language of the birds) into English 42

Mulohaza

Qayum Baymirov. Pedagogik ta'lim: mohiyat, tartibot va mazmun 44

Kichik tadqiqot

Gulrux Rahmonova. Milliy harakatli o'yinlardan jismoniy tarbiya darslarida samarali foydalanish yo'llari 46

Методические рекомендации

Фарида Умарова. Мой гардероб 49

Используйте эти материалы

Гульшод Хамраева. Система упражнений для обучения стилистическим свойствам наречий русского языка студентов узбекской аудитории 53

Хилола Юнусова. Язык и межкультурная коммуникация 56

Языкознание

Дилдора Толипова. Лакунарные единицы в произведении Алишера Навои «Мухокамат ул-лугатайн» 58

Изучаем иностранные языки

Ольга Ким. Классификация, сходства и различия глаголов и адъективов в корейском языке 60

Матлюба Мирханова. Формирование умственной самостоятельности студентов по иностранному языку 63

Литературоведение

Суван Мели. Созвучие 65

Мадинабону Ахмедова. Вопросы прагматики в русских и узбекских рассказах и легендах 66

Нафиса Нематжоннова, Фариза Моминова. Несколько слов о творчестве Нурали Кабула 68

Зарубежная литература

Умида Гафурова. Жанровое своеобразие романа Полеетт Джэйлс «Новости со всех концов света» 69

Научные исследования

Гулноза Нарбаева. Мотивация фразеологизмов испанского языка с зоологическими соматизмами 71

Внеаудиторная работа

Эльвина Алиева. «Знаем ли мы Пушкина?» 74

Свет негаснущих имен

Анатолий Лиходзиевский. «Острый и оригинальный писатель» 78